

JAHON VA O‘ZBEK BOSHLANG‘ICH TA‘LIMIDA “ALIFBE” NI O‘QITISHNING TARIXIY TARAQQIYOTI VA RIVOJLANISH BOSQICHLARI

Ne‘matova Dinora Farxod qizi

Samarqand davlat pedagogika instituti Boshlang‘ich ta‘lim yo‘nalishi 4-kurs talabasi

Kirish

Hozirgi zamon globallashuv davrida dunyo mamlakatlarida ta‘lim tizimini zamonaviylashtirish, o‘quvchilarning turli ko‘nikma va malakalarini shakllantirish, ko‘p tillilikni rivojlantirish hamda o‘qitishning interaktiv va innovatsion usullarini joriy etish asosiy maqsadlardan biri sifatida qaralmoqda. Xususan, boshlang‘ich ta‘lim bosqichida til o‘rgatish, alifbe va fonetik bilimlarni shakllantirish o‘quvchilarning kelajakdagi til kompetensiyasini mustahkamlovchi asosiy omil hisoblanadi. Shu boisdan, turli tillarda – ayniqsa o‘zbek, ingliz va fin tillarida alifbeni o‘qitish va unli, undosh tovushlarni o‘rgatishning qiyosiy metodik texnologiyasini o‘rganish ilmiy-amaliy jihatdan dolzarb masala sanaladi. Xususan respublikamizda so‘nggi yillarda boshlang‘ich ta‘lim tizimiga katta e‘tibor berilmoqda va turli keng miqyosda islohotlar va o‘zgarishlar bajarilmoqda. “Ta‘lim to‘g‘risida”gi Qonun, Prezidentning tegishli farmon va qarorlari asosida milliy ta‘lim tizimining sifatini oshirish, xorijiy tillarni erta bosqichda o‘rgatish, zamonaviy pedagogik texnologiyalarni joriy etish, xalqaro standartlarga mos metodikalarni yaratish kabi vazifalar ilgari surilmoqda.

Asosiy qism

Insoniyat yutuqlarining ichida eng kattasi va muhimi bu alifbo va yozuvning paydo bo‘lishi va shakllanishidir. Harflar ham xuddi odamlar kabi o‘z ajdodlariga, tarixiga ega va ajdodlardan meros bo‘lib kelayotgan noyob mulk sifatida harflar va so‘zlar insoniyatni buyuk ishlarga qodir qilgan va qilib kelmoqda ham. Alifbo va harflarning yaratilishi yozuvning kashf qilinishi ilohiy bir mo‘jiza desak ham mubolag‘a bo‘lmaydi. Asrlar davomida inson tomonidan kashf qilingan buyuk kashfiyotlar ichida eng muximrog‘i yozuv ekanligi aytiladi va shuning bilan birga boshqa ixtirolar ham shu yozuv ortidan kelib chiqqanligini yaqqol ko‘rish mumkin. Yozuv tarixi ma‘lum miqdorda insoniyat tarixidir, chunki unda fikrlash, ifoda etish, san‘at, mexanik ixtirolar va kashfiyotlar bevosita yozuv va alifbo bilan chambarchas bog‘liqdir. Alifboni yaratilishiga turtki bo‘lgan olim Piktografning insoniyat evolyutsiyasiga kiritgan yangiligi o‘tgan asrlar sivilizatsiyasini ham, hozirgi zamonaviy sivilizatsiyani ham guvohi bo‘lib kelmoqda. Alifboning aniq kelib chiqish tarixi haqidagi dalillar xaligacha sirli bo‘lib qolmoqda, lekin uning birinchi ko‘rinishini Sharqiy yer mintaqasida joylashgan davlatlarda kuzatish mumkin. Alifboning kelib chiqishi va yaratilishini to‘liq bilmay turib uni o‘rganish ancha – muncha qiyinchiliklarga olib keladi.

Har bir til o‘zining alifbosiga ega hisoblanadi. Alifboning yaratilishi qadim davrlarga, eramizdan oldingi 2-3-asrlarga borib taqaladi. Yozuvning paydo bo‘lishi bilan alifboning yaratilishi bir xil davrni boshdan kechirgan. Yozuv yaratilishi bilan shu yozuvning shu tilning

alifbosi ya’ni harflari yaratilgan. Shuning uchun ham biz alifboning yaratilish tarixiga nazar solib uni o’rganadigan bo’lsak yozuv tarixini ham bilishimiz lozim. Alifboning yaratilish tarixini o’rganishdan oldin alifboning o’ziga qisqacha to’xtalib o’tamiz. “Alifbo - (arab Alifbosining boshlang’ich ikki harfi — alif va bo nomidan olingan) — biror tilning yozuviga qabul qilingan va ma’lum an’anaviy tartib berilgan yozuv belgilari yoki bo’g’in belgilar majmui. Alifbo miloddan avvalgi 2000-yil oxirlarida qadimgi Ugarit va finikiy yozuvi tovush tizimidan kelib chiqqan.” “Undan ilgari Misr iyerogliflari sanoq tizimi mavjud bo’lgan, deb taxmin qilinadi. Turkiy xalqlarning Run, Urxun-Enasoy yozuvi va turkiy (uyg’ur) yozuvlari bo’lgan. Ularga oid harflar jadvali tovush belgilari haqidagi boshqa manbalardagi ma’lumotlar hamda shu yozuv yodgorliklari asosida tuzilgan. Hozirgi harfiy va ba’zan bo’g’in alifbolari finikiy alifbosidan, oromiy (arab, yahudiy), yunon (lotin va hokazo) va boshqa alifbolardan kelib chiqqan. Arab Alifbosiga — barcha arab mamlakatlari, shuningdek Eron, Afg’oniston, Pokiston, Sharqiy Turkiston — Shinjon, shuningdek 13-20-asr boshlarida turkiy xalqlar yozuv tizimida, lotin Alifbosiga Amerika, Avstraliya qit’asidagi barcha xalqlar, Yevropaning ko’pchilik xalqlari, Osiyo va Afrikadagi ba’zi xalqlar (Indoneziya, Turkiya va boshqalar) yozuv tizimida, Kirill Alifbosiga — Yevropa, Osiyodagi ba’zi xalqlar yozuv tizimida, hind bo’g’in alifbosiga — Hindistondagi ko’pgina elatlar yozuv tizimida amal qilingan” .

Ushbu rasmlarda alifboning asrlar davomidagi evolyutsiyasini ko’rishimiz mumkin.

Genealogy of Our Letters from the			
Phoenician 1300-1000 B.C. Form, meaning, name		Greek 700-500 B.C. Form, name	
𐤀 𐤁 = ox Aleph	Α Α Alpha	Α Α Alpha	
𐤂 𐤃 = house Beth	Β Β Beta	Β Β Beta	
𐤄 𐤅 = camel Gimel	Γ Γ Gamma	Γ Γ Gamma	
𐤆 𐤇 = door Daleth	Δ Δ Delta	Δ Δ Delta	
𐤈 𐤉 = window He	Ε Ε Epsilon	Ε Ε Epsilon	
𐤊 𐤋 = hook Vau	Υ Φ Digamma	Υ Φ Digamma	
𐤌 𐤍 = fence Cheth	Η Η Eta	Η Η Eta	
𐤎 𐤏 = hand Yod	Ι Ι Iota	Ι Ι Iota	
𐤑 𐤒 = palm Kaph	Κ Κ Kappa	Κ Κ Kappa	
𐤓 𐤔 = whip Lamed	Λ Λ Lambda	Λ Λ Lambda	
𐤕 𐤖 = water Mem	Μ Μ Mu	Μ Μ Mu	
𐤗 𐤘 = fish Nun	Ν Ν Nu	Ν Ν Nu	
𐤙 𐤚 = eye Ayin	Ο Ο Omicron	Ο Ο Omicron	
𐤛 𐤜 = mouth Pe	Π Π Pi	Π Π Pi	
𐤞 𐤟 = knot? head? Koph	Φ Φ Koppa	Φ Φ Koppa	
𐤠 𐤡 = head Resh	Ρ Ρ Rho	Ρ Ρ Rho	
𐤣 𐤤 = teeth Shin	Σ Σ Sigma	Σ Σ Sigma	
𐤥 𐤦 = mark Tahv	Τ Τ Tau	Τ Τ Tau	
	Υ Υ Upsilon	Υ Υ Upsilon	
	Υ Υ Upsilon	Υ Υ Upsilon	
𐤨 𐤩 = post Samech	Χ Χ Xi	Χ Χ Xi	
	Υ Υ Upsilon	Υ Υ Upsilon	
𐤫 𐤬 = weapon Zayin	Ζ Ζ Zeta	Ζ Ζ Zeta	

Phoenician Alphabet 1300 B.C.					
Roman 500 B.C. Form, sound	Evolution of small letters 300 to 800 A.D.			Gothic 1200 A.D.	Italic 1500 A.D.
Ah	𐤀	𐤁	a	𐌰	a
Bay	𐤂	𐤃	b	𐌱	b
Kay	𐤄	𐤅	c	𐌲	c
Day	𐤆	𐤇	d	𐌳	d
Eh	𐤈	𐤉	e	𐌴	e
Ef	𐤊	𐤋	f	𐌵	f
	𐤌	𐤍	g	𐌶	g
Hah	𐤎	𐤏	h	𐌷	h
Ee	𐤐	𐤑	i	𐌸	i
			j	𐌹	j
Kah	𐤒	𐤓	k	𐌺	k
El	𐤔	𐤕	l	𐌻	l
Em	𐤖	𐤗	m	𐌼	m
En	𐤘	𐤙	n	𐌽	n
Oh	𐤚	𐤛	o	𐌾	o
Pay	𐤜	𐤝	p	𐌿	p
Koo	𐤞	𐤟	q	𐍂	q
Air	𐤠	𐤡	r	𐍃	r
Ess	𐤣	𐤤	s	𐍄	s
Tay	𐤥	𐤦	t	𐍅	t
Oo	𐤨	𐤩	u	𐍆	u
	𐤫	𐤬	v	𐍇	v
	when 1100 A.D. Anglo-Saxon } W			𐍈	w
Eex	𐤫	𐤬	x	𐍉	x
Ü	𐤫	𐤬	y	𐍊	y
Zayta	𐤫	𐤬	z	𐍋	z

Ushbu rasmda ko‘rishimiz mumkinki, harflar turli asrlarda turlicha bo‘lgan va rivojlanib, o‘zgarib hozirgi ko‘rinishga kelgan. Lotin alifbosining hozirgi kundagi ko‘rinishi har bir til uchun turlicha bo‘lib, lekin undagi birinchi yaratilgan 21 ta harflar (A,B,C,D,E,F,O,H,I,K,L,M,N,O,P,Q,R,S,T,V,X) barcha tillar uchun umumiydir. Qolgan harflar tillarning tovush tizimidan kelib chiqqan holda qo‘shilgan yoki olib tashlangan. Misol uchun lotin alifbosiga asoslangan ingliz yozuvidagi W harfi lotin alifbosiga asoslangan O‘zbek alifbosida yo‘q, uning o‘rniga bizda Sh, ch, ng, kabi harflar birikmasi mavjud. Bunday harflar tilda ishlatiladigan so‘zlardagi tovushga bo‘lgan ehtiyojdan kelib chiqadi.

O‘zbek xalqi boy va qadim tarixga ega xalq hisoblanadi. O‘zbek xalqi rivojlanishi bilan uning madaniyati, ma‘rifati siyosiy, iqtisodiy tomonlari rivojlanishi bilan bir qatorda uning tili ham rivojlanib takomillasha bordi. O‘zbek xalqi azaldan ko‘p millatli xalq hisoblanib kelgan. Azaldan o‘zbek xalqi turkiy xalqlardan bo‘lsa ham uning o‘zbek deb nom olishi juda keyin sodir bo‘lgan. O‘zbek tili va yozuvi ham asrlar davomida boshqa tillar kabi turli xil o‘zgarishlarni va holatlarni boshdan kechirib keldi. Yurtimizda o‘zbek tili – davlat tili deb qabul qilinib yozuv tizimi, alifbosi yaratilgunga qadar turli davrlarni boshdan kechirdi. O‘zbek alifbosining, o‘zbek yozuvining rivojlanish tarixi turli bosqichlarni o‘z ichiga oladi.

O‘zbek alifbosi tarixiy davrlar mobaynida bir necha marotalab o‘zgargan va turli tillarning alifbolari va yozuvlaridan foydalangan. Bu o‘zgarishlar O‘zbekistonda madaniyat, siyosat va dinning rivojlanishi bilan bog‘liq. O‘zbek alifbosining asosiy rivojlanish bosqichlarini quyidagicha ajratish mumkin:

1. Arab yozuvi davri (IX-XX asrlar)
2. Yangi Turk alifbosi (1923-1940 - yillar)
3. Krill yozuvi (1940-1991- yillar)
4. Lotin yozuviga qaytish davri (1993- yildan – hozirgi vaqtgacha)

O‘zbek alifbosining rivojlanishi xalqning madaniyati, dini va siyosiy jarayonlari bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, har bir bosqich mamlakatning tarixiy o‘zgarishlarini aks ettiradi.

Bir qator davlat arboblari, olimlar, filologlar, yozuvchilar kelishgan holda har tomonlama muhokama qilib bu o‘zgarish qiyinchiliklarga boy bo‘lsada kelajakda o‘z o‘rnini topishini ko‘zda tutgan holda krill yozuvidan vos kechib lotin yozuviga o‘tishga qaror qabul qilinadi. Lotin yozuvining tanlanishiga sabablar bor edi. Masalan lotin alifbosi ko‘pchilik tillarning imlosi sifatida qabul qilinganligi va bu boshqa tillarni o‘rganishda qiyinchilik tug‘dirmasligi edi. Bundan tashqari lotin alifbosining 1929 – yildan 1939- yilgacha davom etgan 10 yillik tajribaga ega ekanligi lotin yozuvi o‘zbek tiliga juda mos yozuv bo‘la olishini ko‘rsatar edi. Shu afzalliklarni ko‘zda tutgan holda 1993– yil 2- sentabrda “Lotin yozuviga asoslangan o‘zbek alifbosini joriy etish to‘g‘risida” qonun qabul qilindi. Ushbu qonundan keyin barcha davlat hujjarlari, davlat ishlari, ommaviy axborot vositalari lotin yozuviga asoslangan o‘zbek tilida yuritiladigan bo‘ldi, darsliklar gazeta jurnallar boshqatdan lotin yozuvida chop qilindi. Bu katta o‘zgarish yana bir bor xalqning savodsizlanishiga sabab bo‘ldi. Lekin yangi kelajak avlod uchun bu o‘zgarish ijobiy natijalarni olib keldi. Krill yozuvida savod chiqargan odamlar lotin yozuvida yozishga, o‘qishga, ish yuritishga juda qiynalgan. Lekin bu qiyinchiliklar yillar o‘tgan sari kamayib bormoqda. Lotin yozuviga asoslangan o‘zbek yozuviga yillar davomida isloh qilinib, o‘zgartirilib, kamchiliklari tuzatilib kelinmoqda. “1995- yilning 6- mayida O‘zbekiston Oliy majlisi “Lotin yozuviga asoslangan O‘zbek tili”ga yana bir bora o‘zgartirish kiritdi va bunda 31 ta harf va 1 ta tutuq belgisidan iborat bo‘lgan alifbomiz 26 ta harf va 3 ta harf birikmasi bilan almashtirildi” .

1929- yilgacha	1929- 1940-yillar	1940- 1995-yillar	1995- yildan
ا, ه	Ә ә	А а	А а
ب	В в	Б б	В в
د	Д д	Д д	Д д
ه	Е е	Э э	Е е
ف	Ф ф	Ф ф	Ф ф
گ	Г г	Г г	Г г
ح, ه	Н н	Х х	Н н
ی	И и	И и	И и
ج, ژ	Ç ç, Z z	Ж ж	Ж ж
ك	К к	К к	К к
ل	Л л	Л л	Л л
م	М м	М м	М м
ن	Н н	Н н	Н н
ا	А а	О о	О о
پ	Р р	П п	Р р

1929- yilgacha	1929- 1940-yillar	1940- 1995-yillar	1995- yildan
ق	Q q	Қ қ	Q q
ر	R r	Р р	R r
ص, س, ث	S s	С с	S s
ط, ت	T t	Т т	T t
و	U u	У у	U u
و	V v	В в	V v
خ	X x	Х х	X x
ی	J j	Й й	Y y
ظ, ض, ز, ذ	Z z	З з	Z z
و	O o	Ў ў	O' o'
غ	G g	Ғ ғ	G' g'
ش	Sh sh	Ш ш	Sh sh
چ	Ch ch	Ч ч	Ch ch
ع, ه	'	Ь ь	'

Shu bilan bir qatorda “1995- yili 24- avgustda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 339-sonli qarori bilan tasdiqlangan va shu yilning o‘zida “O‘zbek tilining asosiy imlo qoidalari” nomli kitobi nashr qilindi. Ushbu kitob jami 82 moddadan iboratdir. Respublika Oliy Majlisi qaroriga asosan 1996-yil 2-sentabrdan boshlab barcha umumta’lim maktablarining birinchi sinflarida, maktabgacha ta’lim muassasalarida yangi o‘zbek alifbosini va imlosini o‘rgatish bo‘yicha darslar va mashg‘ulotlar boshlanadi, davlat tashkilotlari va muassasalarida lotin yozuvidagi o‘zbek alifbosini o‘rgatish ishlari boshlanadi va lotin yozuvidagi o‘zbek alifbosini o‘rgatish va o‘rganish jarayoni 2005-yilgacha davom etadi va shu yil sentabrdan boshlab respublikamizning barcha sohalarida davlat tilida ish yuritish boshlanadi”.

1995-yilda qabul qilingan qarordan boshlab boshlang‘ich ta’lim o‘quvchilari lotin alifbosida savod chiqarishni boshlashdi. Biroq xaligacha yurtimizda o‘zbek tilini bu yozuvga to‘liq o‘tkaza olmadik. Lotin tiliga asoslangan o‘zbek tili yillar davomida o‘zgarishlarga uchrab kelmoqda va bu hozirgacha davom etmoqda. Kamchiliklar ko‘p, ularni isloh qilish uchun esa ancha vaqt va kuch, bilim kerak bo‘ladi. 1995-yildan beri 29 yil o‘tgan bo‘lsada biz to‘liqligicha lotin alifbosi asosidagi o‘zbek yozuviga o‘tganimiz yo‘q, ayrim sohalarda va joylarda xaligacha krill grafikasidan foydalaniladi. Lotin alifbosini o‘zgartirish bo‘yicha muzokaralar xaligacha barham topmagan.

Aytib o‘tilganidek ona tilimiz yillar davomida o‘zgarishlarga duchor bo‘lib keldi, bu o‘zgarishlarning ba’zilar tilimiz, millatimiz rivoji ravnaqi uchun bo‘lsa ba’zilar uni yo‘qotish, poymol qilish maqsadida bo‘ldi. Turli xil say- xarakatlarga qaramasdan tilimiz o‘z alifbosiga ega bo‘ldi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi (yangi tahrir). – Toshkent: O‘zbekiston, 2023.
2. O‘zbekiston Respublikasi “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni. (Yangi tahriri) – Qabul qilingan sana: 23.09.2020.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Yangi O‘zbekiston maktabi” konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PQ–4359-sonli qarori. – 05.11.2019.
4. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Davlat ta’lim standartlarini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 187-sonli qarori. – 06.04.2017.
5. Mirziyoyev Sh.M. Yoshlar – kelajagimizning hal qiluvchi kuchi. Toshkent.: “O‘zbekiston”. 2024
6. Mirziyoyev Sh.M. Zamonaviy iqtisodiy siyosat va xalqaro hamkorlikni rivojlantirish bo‘yicha tashabbuslarimiz. Toshkent.: “O‘zbekiston”. 2024
7. Mirziyoyev Shavkat Miromonovich. Yangi O‘zbekiston strategiyasi.- Toshkent, “O‘zbekiston” nashriyoti, 2022. -416 b.
8. Mirziyoyev Shavkat Miromonovich. Hozirgi zamon va Yangi O‘zbekiston.- Toshkent, “O‘zbekiston” nashriyoti, 2024. -512 b.
9. Abduliayev Y, Sh. Yo‘ldosheva . Yangi alifbo va imlo: (o‘quv qo‘llanma).— T.: “O‘qituvchi”, 2000.— 96 b.
10. Abdullaeva Q., SHodmonova SH., Yo‘ldosheva SH. Savod o‘rgatish metodikasi. –T.: O‘zbekiston, 1996. –80 b.
11. Abduazizov A. English phonetics –T.: “Musiqi” 2007.
12. Abdullayeva Y. Hamrohim. – T.: O‘qituvchi,1996
13. Abdurahmonov G‘.Hozirgi o‘zbek adabiy tili. T.: “O‘qituvchi”, 2003.- 296
14. Абдурахмонов Г. Узбек тили ва адабиёти Т.: Узбекистан, 2002, 352 б.
15. Adizova.N.B Ona tili o‘qitish metodikasi. – Buxoro Davlat universiteti.: Buxoro 2020
16. Albert C.Baugh, Thomas Cable. A history of the English language – Pearson Education, Prentice Hall, Inc.: 1993
17. Anorbekova. A Hozirgi o‘zbek adabiy tili. T.: “Noshir”, 2011, 336 b
18. Boltayev M Lotin yozuviga asoslangan o‘zbek alifbosi va imlosi. – T.: “O‘qituvchi”, 2003. – 96 b
19. Fitrat A. Unli va unsiz tovishlar //Tanlangan asarlar. 4-j. – T.: Ma’naviyat, 2006-yil.
20. Ганс Люльфинг. У истоков алфавита – Москва «Книга».: 1981.
21. Hamroyev M Ona tili. – T.: “Iqtisod-moliya”, 2007. 276 b
22. Ikromova R. Ona tilidan mashqlar to‘plami. – Toshkent 2009

23. Ishmuhamedov R., Yuldoshev M. Ta'lim va tarbiyada innovatsion pedagogik texnologiyalar.-T.: Nihol, 2013-yil.
24. Jamolxonov.H.A. Hozirgi o'zbek adabiy tili. Oquv qo'llanma. T.: Nizomiy nomli TDPU bosmaxonasi, 2004
25. Jamolxonov.H, Umarov. A. O'zbek yozuvining XX asr tarixi. T.: Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston milliy kutubxonasi, 2017.- 456-b.
26. Jamolxonov H.A. Fonetika, fonologiya va orfoepiya. Ma'ruzalar matni.-T.: Nizomiy nomli TDPU bosmaxonasi,1999-yil.
27. Karimov I. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent.: “Ma'naviyat”, 2016.-B.176